

KVALITOLOGIYA ATAMASINING MAZMUNI VA MOHIYATI

Akram Jo‘rayev Namozovich

Termiz davlat universiteti

Tarix fakulteti “Falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kvalitologiya atamasining mazmun-mohiyati ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, kvalitologiya tushunchasining kelib chiqishi, mazmuniy tarkibi va uning zamonaviy pedagogik jarayondagi o‘rni o‘rganiladi. Mazkur yondashuv pedagogika nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda kvalitologik qarashlarning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: “Kvalitologiya”, “integrativ”, “intellektual”, “ko‘nikma”, “tayanch kompetensiya”, “integratsiya”, “kreativ”, “ilmiy-metodik”, “innovatsion ta’lim”, “assimilyatsiya”, “didakt”, “metodist”, kvalimetriya.

ABSTRACT

This article scientifically analyzes the essence of the term quality. In particular, the origin of the concept of quality, its content and its role in the modern pedagogical process are studied. This approach is analyzed from the point of view of pedagogy, and the importance of quality views in improving the quality and efficiency of education is substantiated.

Keywords: “Quality”, “integrative”, “intellectual”, “skill”, “core competence”, “integration”, “creative”, “scientific and methodological”, “innovative education”, “assimilation”, “didactic”, “methodologist”, qualimetry.

KIRISH (INTRODUCTION)

Jahonda jadal kechayotgan globallashuv jarayoni ta’lim tizimining barcha yo‘nalishlarida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Ta’lim samaradorligiga erishish omili sifatida bu yondashuvlar xalqaro hujjatlar - BMTning “Millennium Declaration”, Jahon Ta’lim Forumi (World Education Forum), OECDning baholash dasturlari (PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS)da alohida o‘rin egallaydi. Xalqaro baholash dasturlari ta’lim jarayoniga integrativ yondashuvni tatbiq etishni ilgari suradi. Bu orqali talabaning intellektual salohiyatini rivojlantirish, fanlararo bilimlarni real muammolarni hal qilishda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga erishiladi. Shuningdek, asosiy kasbiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish ham pedagogik samaradorlikka xizmat qiladi.

Dunyo mamlakatlarining yetmish foizi ta’lim tizimida integrativ yondashuvga asoslangan fan dasturi va o‘quv-metodik majmuadan foydalanib kelmoqda. Buyuk

Britaniya, Avstraliya, Yaponiya, Shimoliy Irlandiya, Uells, Gong-Kong, Germaniya, Niderlandiya, Irlandiya, Vengriya, Koreya va Shveysariyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot markazlarida ta'limning tur va fanlararo integratsiyasini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari yuzasidan amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yoshlarni intellektual salohiyatli, kreativ fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy fazilatlar mujassamlashgan har tomonlama barkamol shaxslar etib voyaga yetkazishda ta'lim tizimi, jumladan, dinshunoslik fani doirasida fanlararo integratsiyadan foydalanishning aniq ilmiy xulosa va natijalarga tayangan ilmiy-metodik asoslarini belgilash, integrallashgan dastur va o'quv-qo'llanmalar yaratish, innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar shakllari va texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar yoshlarni kreativ, mantiqiy tafakkur va nostandart, intellektual qobiliyat egalari hamda ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxslar sifatida tarbiyalashda dinshunoslik fani jarayonida fanlararo integratsiya ta'lim natijaviyligini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusda yoshlarni sport, kompyuter texnologiyalari va internet, kitobxonlikka qiziqtirish masalalari ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab berilganligi¹ shuningdek, kitobxonlikka targ'ib qilish uchun tavsiya qilingan badiiy asarlar va fanga oid topshiriqlari sonini ko'paytirish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish orqali oliy ta'lim muassasalarida dinshunoslik fanini o'qitish samaradorligini oshirish, talabalarda nutqiy, lingvistik, asosiy kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlash hozirgi kunning eng dolzarb masalalari ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURE REVIEW)

Ushbu maqolani tayyorlashda pedagoglardan A.B.Трет'яков, I.G.Subetto, И.Я.Лернер, O.Roziqov, S.Og'aeв, M.Mahmudova, B.Adizov, O.Q.To'xtayev, A.Hojiev, M.Alimova, asarlarida bayon etilgan nazariy qoidalar va uslubiy tavsiyalarga tayanildi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Kvalitologiya - bu inson tomonidan yaratilgan obyektlar va jarayonlarning sifati haqidagi fan. "Kvalitologiya" atamasi XX asrning 60-yillari o'rtalarida paydo bo'lgan². "Sifat" obyekt sifatida, ko'plab fanlar tomonidan o'rganiladi, ammo ularning obyektlari individual xususiyatlar yoki xususiyatlar majmui.

¹ 2017– 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli [Farmoniga](http://www.lex.uz) 1-ilova // <http://www.lex.uz>

² Трет'яков А.В. *Основы квалитологии*. — Москва: Издательство стандартов, 1996. — Б. 5–10.

Kvalitologiyaning obykti insonning bilish jarayonlari va hodisalarining sifati. Kvalitologiyaning predmeti - bu ta'lim amaliyoti tomonidan keng ma'noda assimilyatsiya qilingan obyektlar va jarayonlar o'rtasidagi bog'lanishdan iborat.

Didaktik va metodistlar ta'lim jarayonining samaradorligi deb ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsad va erishilgan natija o'rtasidagi farqni izohlaydilar. Ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsad va erishilgan natija o'rtasidagi tafovut qancha kam bo'lsa, ta'lim shuncha samarador sanaladi. Samaradorlikning sifat ko'rsatgichlari bilim va faoliyat usullarini egallashga ko'ra aniqlanadi. Miqdor ko'rsatgichlari esa ta'lim maqsadi va talabalar tomonidan erishilgan bilim, ko'nikma, malakalar orasidagi farqqa ko'ra aniqlanadi.

Samaradorlikni oshirish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha sinovdan o'tkaziladi: ta'lim sifati (talabalar bilimining ko'lami, umumlashtirishlar darajasi, bilimlarni ishlab chiqarishga tatbiq eta olish, bilim va malakalardan zarurat tug'ilganda foydalana bilish)ni yaxshilash; ta'lim natijasining qo'yilgan maqsad (bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasini Davlat ta'lim standartlari darajasida va undan yuqori darajada o'zlashtirish)ga yaqinlashtirish; ta'lim vositalarining ta'lim-tarbiya jarayoni mohiyatiga mosligini ta'minlash; vaqt byudjetini oqilona taqsimlash. Qayd qilingan yo'nalishlar pedagogik tajriba maqsadini aniqlashni ma'lum darajada osonlashtiradi. Ijodiy ta'limni ilmiy asoslangan loyihalashtirish vositalari negizida tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning samaradorlik darajasini didaktik jihatdan belgilash pedagogik tajribaning maqsadi hisoblanadi.

I.Subetto kvalitologiya fanining uch prinsipi va uning uchta asosiy birligini ta'kidlaydi:

- sifat nazariyasi (obyektlar va jarayonlar sifatini shakllantirish va amalga oshirish qonunlari va tamoyillari);
- sifatni o'lchash va baholash nazariyalari (kvalimetriya);
- sifat menejmenti nazariyalari (mahsulotlar, mehnat va ish sifatini boshqarish qonunlari, printsiplari, mexanizmlari, tizimlari, metodologiyalari va texnologiyalari)³.

Kvalitologiya strukturasi

Kvalitologiya			
Sifat nazariyasi	Kvalimetriya	Metrologiya	Sifatni boshqarish nazariyasi
Sifatini shakllantirish	Umumiy	O'lchovlarning bir xilligini ta'minlash	Sifat tahlili

³ Субетто И.Г. *Основы общей теории качества (квалитологии)*. — Санкт-Петербург: Наука, 2004. — Б. 17–19.

va amalga oshirish qonunlari va prinsiplari	Maxsus	O'lovlarining aniqligini ta'minlash	Sifatni ta'minlash
	Predmetga ko'ra		Sifatni yaxshilash

Kvalitologiyaning uchta asosiy qismining o'zaro bog'liqligi sifat nazariyasi kvalimetriyaga kirish vazifasini bajaradi, kvalitologiya triadasini yopadigan sifatni boshqarish nazariyasining asosi bo'lib xizmat qiladi. Uchlik tufayli ushbu uchta nazariyani tushinishda noaniqlik olib tashlanadi va kvalitologiyaning o'zi o'rganish obyekti sifat bo'lgan fanlarning integratori sifatida namoyon bo'ladi.

Sifat ontologiyasi sifat falsafasi doirasida sifat epistemologiyasi sifat aksiologiyasi va sifat praksiologiyasi bilan o'zaro ta'sir qiladi. Ushbu o'zaro ta'sirda vositachi kvalimetriya hisoblanadi.

Kvalimetriya – har qanday obyektlarning sifatini baholash nazariyasi (yaratilgan, ishlatilgan, sub'ektga ta'sir qiluvchi), ya'ni kvalimetriya predmeti-sifatni baholashning miqdoriy va miqdoriy bo'lmagan usullari.

Qualimetriya (qualitas – sifat, xususiyat, xarakter va quails – qaysi, qaysi sifat; “metreo” – o'lchash, o'lchov)⁴ – bu mahsulot sifatini boshqarish va standartlashtirish jarayonida qabul qilingan qarorlarni asoslash uchun ishlatiladigan obyektlar va inson faoliyati jarayonlarining sifatini baholashning miqdoriy usullarini birlashtirgan ilmiy soha.

Ta'lim sifatini oshirish uzluksiz jarayon. Ta'lim sifatini boshqarishga bo'lgan yondashuvlarni muhokama qilishni boshlashdan oldin quyidagilarni aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- hozirgi vaziyatda nima boshqarish ob'ekti hisoblanadi;
- sifatni takomillashtirish bo'yicha xatti-harakatlar nimaga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ushbu masala bo'yicha turli tadqiqotchilarning fikrlari bir-biridan tubdan farq etishadi. Ba'zi bir tadqiqotlarda ta'lim sifati tarkibini uchtaga ajratishadi:
- ta'lim mazmun-mohiyati (bilimlar sifati, muammolarni yechish yo'llari sifati);
- ta'lim va tarbiya usullari sifati (anglash faoliyati sifati, anglash faoliyati motivatsiyasi sifati, amalga oshirilayotgan ta'lim faoliyati nazorati sifati, o'quv faoliyati natijalarini nazorat qilish sifati);
- shaxslarning bilimlilik sifati (bilimlarni o'zlashtirish sifati, malaka va ko'nikmalar sifati, ma'naviy normalarni o'zlashtirish sifati).

Ta'lim sifatiga bo'lgan zamonaviy yondashuv o'z ichiga standartlashtirishning majburiy jarayonlari (ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash, tekshirish faoliyati

⁴ Subetto I.G. *Osnovy obshchey teorii kachestva (kvalitologii)*. — Sankt-Peterburg: Nauka, 2004. — 35–37-b

natijalarini baholash, ichki nazorat va boshqalar)ni, shuningdek, jarayonlarning insonparvarlik ko'rsatkichlarini va ta'lim samaralarini o'lchash va hisobga olishni oladi.

Ushbu nuqtai nazardan sifat quyidagi tavsiflar bo'yicha aniqlanadi:

- aniq ta'lim tizimi (ta'lim muassasasi) darajasida ta'lim maqsadlari va natijalarining muvofiqlik darajasi; aniq inson(bilim sifati, malaka va ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi va hokazolar)ning ta'lim natijalarini baholashda turli ko'rsatkichlar orasidagi muvofiqliklarni;

- nazariy bilimlar va ulardan kasbiy faoliyatda va amaliyot(hayot)da qo'llash malakalarining mosligi darajasi. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda, shuningdek, ta'lim sifatini baholashda turlicha yondashuvlarni tahlil qilishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Xorijda ta'lim sifatini baholash indikatorlarining uchta guruhini ajratish mumkin: ta'lim tizimi ichki sifati indikatorlari;

- sub'ektiv tavsifda (iste'molchilar fikrini hisobga olish, ijtimoiy-pedagogik monitoring ma'lumotlari)gi ta'lim sifati indikatorlari; aholi va ta'lim oluvchilarning turli ijtimoiy qatlamlari uchun ta'lim olishga bo'lgan tenglik indikatorlari.

O'zbekiston Respublikasida professor-o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilgan. Bugungi kun professor-o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda. Pedagogik va axborot texnologiyalari hamda talabalar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, darslarda pedagogik va axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi va uni rivojlantirish istiqbollarini ochib berishi kerak.

"Ta'lim mazmuni" tushunchasi haqida gapirilganda bu tushunchaning "ta'lim turi (bosqichi) mazmuni" va "ma'lum bir o'quv predmeti ta'limi mazmuni" kabi voqelanishini farqlash lozim. Ta'lim turi (bosqichi) mazmuni deganda ta'limning ma'lum bir turi (bosqichi)da o'rganiladigan "o'quv predmetlari, ularning o'zaro aloqadorligi va o'rganilish tartibi" tushuniladi⁵.

"O'quv predmeti ta'limi mazmuni" tushunchasi bundan ancha farq qiladi. Ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari haqida didaktikada yagona fikr mavjud emas. I.Y.Lerner to'g'ri ta'kidlaganidek, "Ta'lim mazmuni tushunchasi ostida, odatda, bilim va ko'nikma tushuniladi. Ba'zan esa ta'lim mazmuni deganda faqat beriladigan bilimlar majmui tushuniladi, xolos. Uzoq yillar davomida o'quv dasturlari berilishi lozim bo'lgan bilimlar ro'yxatidagina iborat edi"⁶. Ayrim olimlarning turli davrlarda

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori bilan tasdiqlangan "Milliy o'quv reja tuzish tartibi".

⁶ Лернер И.Я. *Дидактические основы методов обучения*. — Москва: Педагогика, 1981. — Б. 27.

yaratgan ishlarida ta'lim mazmunining tarkibi va uni tashkil etuvchi qismlar turlicha tushuniladi:

- talabaga taqdim etiladigan bilimlar;
- egallangan bilimlar asosida hosil qilinadigan ko'nikmalar va malakalar;
- mustaqil ijodiy faoliyat;
- hissi munosabat kabilarni ko'rsatadi.

O.Roziqov, S.Og'aeV, M.Mahmudova, B.Adizovlar ma'lumot mazmuni va ta'lim mazmuni tushunchalarini farqlab, ular ta'lim mazmunini "ma'lumot mazmunining dinamikasi – harakati" shaklida tushunadilar va ta'lim mazmuni tushunchasini quyidagicha sharhlaydilar:

"Ta'lim mazmuni – yoshlarni ma'lumotli qilish, taraqqiy ettirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat usullari hamda tabiat, jamiyat, tafakkur hodisalarini emotsional baholashga doir munosabatlardir"⁷.

Mazkur tavsifdan ko'rinib turibdiki, ular ta'lim mazmunining tarkibiy qismlarini aniq va ravshan sanab bermagan bo'lsalar-da, ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ajratadilar:

- berilishi lozim bo'lgan bilimlar;
- bu bilimlar asosida hosil bo'ladigan ko'nikma va malakalar;
- faoliyat usullari;
- emotsional baholash.

Mualliflar "faoliyat usullari" tushunchasini ochib bermaganlar. Lekin ko'rinib turibdiki, unga "ijodiy" aniqlovchisi berilsa, ular I.Ya.Lernerning izidan borganlar.

Biz ham muayyan o'quv predmeti bo'yicha belgilab berilgan ta'lim mazmuni tushunchasini yuqoridagi tasnif darajasida tushunamiz. Mustaqillik yillarida umumiy oliy ta'lim tizimiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma asosida belgilab berilgan ta'lim maqsadi va davlat ta'lim standartlari talabaning mustaqil fikrlash ko'nikmalari, amaliy faoliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunday ko'nikmalar esa sub'ekt-sub'ekt doirasida shakllanadi. Tom ma'noda maqsad usulni, usul mazmunni belgilaydi. Bilim – ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi. Bilim ta'lim jarayoni va insonning kundalik hayotida orttirgan tajribasi natijasida hosil bo'lib, avloddan avlodga yetkaziladi.

XULOSA (CONCLUSION)

Zamonaviy pedagogikada ta'lim sifatini oshirish, talabalarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog'liq masalalar markaziy ilmiy muammo

⁷ Roziqov O., Og'aeV S., Mahmudova M., Adizov B. *Pedagogika*. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2005. – B. 62.

sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda **kvalitologiya** fani o'zining nazariy-metodologik imkoniyatlari bilan ta'lim sifati, mazmuni va texnologiyasini tubdan qayta ko'rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Kvalitologiyaning asosiy kategoriyalari – **sifat nazariyasi, kvalimetriya va sifat menejmenti** – ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini tizimli baholash, boshqarish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida talabaning individual intellektual salohiyatini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash, amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishda kvalitologik yondashuvning o'rni beqiyosdir.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, kompetensiyaviy yondashuvni samarali tatbiq etishda ta'lim mazmuni va usullarini sifatli loyihalash, metodik vositalarni puxta tanlash, shuningdek, nostandart, muammoli va faoliyatga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish muhim omildir. Bu borada professor-o'qituvchining metodik madaniyati, kreativ yondashuvi va kvalitologik tafakkuri hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, kvalitologiya ta'lim sifati va mazmunini baholashda zamonaviy ilmiy platforma bo'lib, u pedagogik tajriba va amaliyotga tayanib, talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim fanlararo yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

REFERENCES

1. 2017– 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // <http://www.lex.uz>
2. Трет'яков А.В. *Основы квалитологии*. — Москва: Издательство стандартов, 1996. — Б. 5–10.
3. Субетто И.Г. *Основы общей теории качества (квалитологии)*. — Санкт-Петербург: Наука, 2004. — Б. 17–19.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori bilan tasdiqlangan "Milliy o'quv reja tuzish tartibi".
5. Лернер И.Я. *Дидактические основы методов обучения*. — Москва: Педагогика, 1981. — Б. 27.
6. Roziqov O., Og'aeв S., Mahmudova M., Adizov B. *Pedagogika*. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2005. – Б. 62.